ASSALOM, NAVRO‘Z!

KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 11 (541) 2025-YIL, 21-MART

NAVRO‘Z BAYRAMI ARAFASIDA ARZONLASHTIRILGAN SAVDO YARMARKALARI TASHKIL ETILDI

Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan Andijon shahrining qator hududlarida arzonlashtirilgan savdo yarmarkalari tashkil etildi.



Prezidentimizning joriy yil 21 fevraldagi "2025 yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida"gi qarori ijrosi doirasida Andijon viloyatining tuman, shahar va mahallalarida "Inson qadri uchun, inson baxti uchun", degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari, yarmarkalar hamda boshqa turli tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Arzonlashtirilgan savdo yarmarkalari rastalari Andijon shahrining Markaziy hamda Dehqon bozori, shuningdek, 14 ta mahalla guzarida ish boshladi. Unda "Andijon bozorlar uyushmasi", "Andijongo‘shtsutsavdo", "Andijonbaliq" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, viloyatdagi agrofirmalar, parrandachilik korxonalari va savdo tashkilotlarining mahsulotlari, shuningdek, fermer xo‘jaliklari hamda dehqonlar tomonidan yetishtirilgan, ishlab chiqarilgan 40 ga yaqin turdagi meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari o‘rin olgan.

Hamyurtlarimizning bayram dasturxonlari to‘kin bo‘lishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan ushbu savdo yarmarkalari shahar aholisi uchun katta qulaylik yaratmoqda. Qolaversa, savdoga qo‘yilgan mahsulotlar narxi bozordagiga nisbatan arzon. Bundan tashqari, namunali xizmat ko‘rsatilishi, plastik kartalar orqali ham savdolarning yo‘lga qo‘yilganligi ko‘pchilikka manzur bo‘lmoqda.

- Yarmarkadagi mahsulotlar bozorga nisbatan arzon narxda sotilayotganligidan xursandmiz, - deydi Andijon shahridagi Mash'al mahallasida yashovchi, mehnat faxriysi Lolaxon Erkaboyeva. - Bir kilogramm mol go‘shtini 80 ming so‘m, tuxumning donasini 900 so‘m, tovuq go‘shtining kilosini 24 ming so‘m, guruch turiga qarab 11-20 ming so‘m, shakar 12,5 ming so‘m, kartoshka 5500 so‘m, paxta yog‘ining litri 17 ming so‘mdan sotilayotganligi andijonliklarga bayram tuhfasi bo‘lmoqda.

Xalqimiz uchun mehr-oqibat, ezgulik timsoliga aylangan Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan tashkil etilgan mazkur savdo yarmarkalari aholiga qulaylik yaratish bilan birga, bayram arafasida narx-navoning sun'iy oshib ketishining oldini olishga, aholining turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

D.ABDUMAJIDOVA,
"Adolat mezoni" muxbiri.

SHAXS O‘ZI NOMIGA KREDIT RASMIYLASHTIRISHGA TAQIQ O‘RNATISHI MUMKIN

O‘zbekistonda 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida esa 5 ming 500 ta kiberjinoyat sodir etilgan. Shundan 70 foizi bank kartalari bilan bog‘liq firibgarlik va o‘g‘rilik jinoyatlari hisoblanadi.

2024-yil I choragida 2-3 mingtagacha kiberfiribgarlik jinoyatlari sodir etilgani xabar qilingandi. Bu kabi jinoyatlarni oldini olish va kamaytirish borasida qonunchilik asoslari mustahkamlanmoqda.

Bunga Prezident tomonidan 2025-yil 4-martdagi "Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi O‘RQ-1043-son Qonunini misol qilish mumkin.

Mazkur qonun bilan "Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga jismoniy shaxslar bilan kredit bitimlarini tuzishga taqiq belgilash va uni olib tashlashga bo‘lgan huquqlar, ularni Kredit bitimi tuzish taqiqlangan shaxslar reyestriga kiritishning tartibi va shartlari, shuningdek, kredit axborotidan foydalanuvchilarning belgilangan taqiqni buzgan holda kredit bitimi tuzgani uchun javobgarlik belgilanilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jismoniy shaxs kredit bitimini uning ishtirokisiz yoki xabardorligisiz rasmiylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun kredit byurosiga ariza berish yo‘li bilan u bilan kredit bitimi tuzishni taqiqlashi mumkin.

Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiqni bekor qilish to‘g‘risidagi ariza murojaat asosida yozma yoki elektron shaklda YAIDXP, davlat xizmatlari markazlari yoki kredit byurolari orqali beriladi. Ushbu xizmat bepul taqdim etiladi.

Taqiqlash to‘g‘risidagi ariza kredit byurosi tomonidan darhol kredit bitimini tuzish taqiqlangan shaxslar reyestriga kiritiladi.

Kredit bitimini tuzish taqiqlangan shaxslar reyestridan yoki bunday taqiqning olib tashlanganligi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni olmasdan turib kredit bitimini tuzish taqiqlanadi.

Shuningdek, kredit byurolariga ta'sir ko‘rsatish choralari yuzasidan qo‘shimchalar kiritilmoqda. Xususan, Markaziy bank kredit byurolariga nisbatan quyidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun choralar va sanksiyalarni qo‘llaydi:

* kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risidagi va kredit byurolari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik;

* kredit byurolari xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini buzish;

* litsenziya soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Qoidabuzarliklar aniqlanganda Markaziy bank quyidagi chora va sanksiyalarni qo‘llashga haqli:

* kredit byurolariga qoidabuzarliklarni bartaraf etish, shu jumladan, kredit byurolari xizmatlari iste'molchilarining huquqlari buzilishiga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rsatmalar yuborish;

* BHMning 5 ming baravari miqdorida jarima undirish.

Hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2025-yil 6-iyundan kuchga kiradi.

Sardorbek REJABBOYEV,
Andijon viloyat prokuraturasi Prokuratura organlari tergov tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat bo‘limi boshlig‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, qolaversa, muborak Ramazon oyi munosabati bilan O‘zbekiston faxriylarning qo‘llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg‘armasi Andijon viloyati bo‘limi rahbari, senator O‘ktamjon Oxunov boshchiligida bir guruh nuroniylar Marhamat tumani Paxtakor mahallasida istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi Iminjon ota Temirov xonadonida bo‘ldi.

IKKINCHI JAHON URUSHI QATNASHCHISI HOLIDAN XABAR OLINDI



Bugun o‘zining qutlug‘ 100 yoshini nishonlayotgan Iminjon ota Temirov Ikkinchi jahon urushi janggohlarida qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan mard va jasur yurtdoshlarimizdan biridir.

Bugungi tinch, dorilamon, nurafshon kunlarga yetishimizda janggohlarda o‘lim bilan yuzma-yuz kelib, dushmanni yer tishlatgan, g‘alaba bilan yurtga qaytgan, keyin esa yurtni tiklash, hayotimiz farovonligi yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qilgan Iminjon ota Temirov singari nuroniylarning xizmatlari beqiyos. Ularni har qancha e'zozlasak, hurmat ko‘rsatsak kamlik qiladi.

Tashrif davomida nuroniylar Iminjon ota bilan dildan suhbat qurdi. Urush xotiralari yodga olindi.

"Nuroniy" uyushmasi Andijon viloyati bo‘limi nomidan Iminjon otaga sovg‘alar topshirildi.

El-yurt, mahalladoshlar, farzand va nabiralari ardog‘ida, keksalik gashtini surib umrguzaronlik qilayotgan Iminjon ota yurtimizda keksalarga, urush qatnashchilariga ko‘rsatilayotgan e'tibor va yo‘qlovlardan mamnun ekanligini bildirdi.

Urush va mehnat faxriylari, nuroniy keksalarni yo‘qlashdek bu kabi xayrli ishlar Andijonning barcha tuman va shaharlarida o‘tkazilmoqda.

F. UBAYDULLAYEV,
Z. UMRZOQOV (foto),
O‘zA muxbirlari.

JAMIYAT RIVOJIGA G‘OV BO‘LAYOTGAN ILLAT

Korrupsiya jahon miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan jahonshumul muammolardan biridir. Korrupsiyaning har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Yurtimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurashish va uni ildizi bilan yo‘q qilib yuborishga qaratilgan chora-tadbirlar barcha huquqni muhofaza qilish organlar faoliyatini qamrab olmoqda.

Shu qatorda prokuratura organlari ham korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida prokuratura va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan bir qator dasturlar ishlab chiqilib ular bo‘yicha salmoqli va keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Biroq, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan viloyatimiz hududida davlat tashkilotlari xodimlari va boshqa fuqarolar tomonidan korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yish holatlari hamon kuzatilmoqda.

Xususan, 2024-yil 12-noyabr kuni fuqaro B.O.ning arizasiga asosan o‘tkazilgan tezkor tadbirda, Andijon shahar soliq inspeksiyasi "Mahallalarga biriktirilgan soliq inspektorlari sho‘basi" davlat soliq bosh inspektori davlat organi mansabdor shaxsi bo‘la turib, B.O.ning manfaati uchun tegishli harakatlarni bajarish vakolatiga ega bo‘lmasada, o‘z xizmat mavqeidan, ya'ni ushbu harakatlar boshqa mansabdor shaxs tomonidan bajarilishi uchun chora ko‘rishi mumkinligidan foydalanganligi ma'lum bo‘ldi. Ariza muallifi faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan bo‘lsa-da, Andijon shahar, Xursandlik MFY, Xidiraliyev ko‘chasi, 128-uyda joylashgan manzilda tadbirkorlikning "kompyuter o‘yinlari klubi" faoliyatini davom ettirib kelayotganligi aniqlandi. Ushbu faoliyat bilan ruxsatnomasiz, nazorat kassa mashinasi o‘rnatmasdan shug‘ullanib kelayotganligi yuzasidan tekshirish o‘tkazmaslik, pora berayotgan B.O.ning manfaatlarini ko‘zlab, unga nisbatan chora ko‘rmasligi va kelgusida unga rahnamolik qilib turishini aytadi. Noqonuniy faoliyat ko‘rsatgan har bir oy uchun tamagirlik yo‘li bilan 500.000 so‘mdan, ya'ni 2024 yil oktyabr-noyabr oylari uchun undan 1.000.000 so‘m pullarni pora tariqasida talab qiladi. Ushbu pul mablag‘larini olish qonunga xilof ekanligini bila turib, Andijon shahar, Xursandlik MFY hududida olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Mazkur holat bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi JKning 210-moddasi 2-qismi "v" bandi bilan qo‘zg‘atilgan va Andijon shahar soliq inspeksiyasi "Mahallalarga biriktirilgan soliq inspektorlari sho‘basi" davlat soliq bosh inspektoriga nisbatan "Qamoqqa olish" ehtiyot chorasi qo‘llanilgan. Jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov harakatlari olib borilib, jinoyat ishi sudga yuborilgan. Sudning hukmi bilan jazoning muqarrarligi ta'minlangan.

Yuqoridagilardan ma'lum bo‘ladi-ki, har bir korrupsiya holatlari bo‘yicha qonun ustuvorligi va jazoning muqarrarligi ta'minlanadi.

Shunga ko‘ra, mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e'tiborini qadrlaydigan har bir fuqaro korrupsiyaning zararli oqibatlarini doimo esda tutmog‘i va unga qarshi kurashmog‘i shart. Zero korrupsiyaga qarshi kurashish - jamiyat taraqqiyotining asosidir.

T.ARSLANOV,
Andijon viloyat prokuraturasi bo‘lim katta prokurori.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – DAVR TALABI

Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyodagi dolzarb muammolardan bo‘lgan korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish masalasiga, mamlakatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ma'lumki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Korrupsiya hodisasi - bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma'naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o‘ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar.

Hozirda korrupsiya tushunchasini yoritishda bir qancha ta'riflar mavjud. Birlashgan millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli ta'rif quyidagicha berilgan: "Korrupsiya - bu shaxsiy naf ko‘rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir".

Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu jinoyatga "Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor. Bu korrupsiya va poraxo‘rlik, jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin. Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishidir" deb bejiz ta'rif berilmagan.

Joriy yilning 5-mart kuni hurmatli Prezidentimiz Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishida yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarga baho berib, kelgusidagi vazifalarni aniq belgilab berdilar.

Xususan, "Sudlar faoliyatiga har qanday aralashish - bu odil sudlovga soya solish deb baholanishi" hamda bu bo‘yicha so‘rov ham, javobgarlik ham qattiq bo‘lishi haqida barchani ogohlantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda ham hurmatli Prezidentimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e'tiborni beshta ustuvor yo‘nalishga qaratib, ulardan biri sifatida korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish masalasini davlat siyosati darajasida mustahkamlab qo‘ygandilar.

Korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida Oliy sud rahbariyati tomonidan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Xususan, sud idoralari xodimlariga o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko‘zlagan muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o‘zi yoki vositachi orqali pul, qimmatli qog‘ozlar, moddiy boyliklar, sovg‘alar, ssudalar, mulkiy mohiyatga molik bo‘lgan xizmatlar kabi takliflar bilan murojaat qilingan taqdirda, u noqonuniy xatti-harakatlarni to‘xtatishni talab qilishi va taklif qilgan shaxsni tegishli javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirishi lozim. Mazkur holat bo‘yicha zudlik bilan tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlarini yozma tarzda xabardor qilishi, zudlik bilan yozma tarzda xabardor qilishning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, telefon orqali xabar berishi yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol murojaat etishi zarur. Xodimning ogohlantirishiga qaramasdan pul yoki boshqa moddiy boyliklar qonunga xilof ravishda uning xizmat xonasida qoldirib ketilgan taqdirda, bu haqda binoga kirish-chiqish postida xizmat o‘tayotgan tegishli shaxslar ishtirokida dalolatnoma tuzib, mazkur dalolatnomani rahbariyatga taqdim etishlari shart ekanligi xususida doimiy ravishda ko‘rsatmalar berib kelinmoqda.

Shuningdek, kengaytirilgan yig‘ilishlarda barcha sudyalar va sud apparati xodimlari o‘z xizmat vazifalarini halol, vijdonan, yuqori professional darajada va vakolatlaridan chetga chiqmagan holda bajarishi, sud hokimiyatini obro‘sizlantirish va nufuziga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan o‘zini tiyishi, bo‘ysunuvidagi xodimlarni noqonuniy qarorlar qabul qilish yoki g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga majbur etmasligi ta'kidlanib kelinmoqda.

Kasbimiz ulkan aql-idrok va ko‘p yillik hayotiy tajribani, xolislik va beg‘arazlikni, intizom va halollikni taqozo qiladigan o‘ta mas'uliyatli, murakkab, shu bilan birga, sharafli kasb ekanligini zinhor unutmasligimiz kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar fuqarolar tomonidan ham faollik ko‘rsatilsagina, ko‘zlangan natijani berishi mumkin.

K.ABDURAZIKOV,
Fuqarolik ishlari bo‘yicha Asaka tumanlararo sudining sudyasi.

Sud muhokamalarida masofadan ishtirok etishning huquqiy asosi yaratilmoqda

Prezident tomonidan imzolangan hujjat bilan aholi sud muhokamalarida masofadan ishtirok etishining huquqiy asosi yaratilmoqda. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida masofadan ishtirok etayotgan shaxslarning shaxsi ishni ko‘rayotgan sud tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda aniqlanadi.

Shavkat Mirziyoyev 11-mart kuni "Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonunni imzoladi.

Hujjatda qayd etilishicha, so‘nggi yillarda ariza berish, ishda masofadan ishtirok etish, sud hujjatlarini olish va ishlarning ko‘rilishi haqida ma'lumot olish kabi xizmatlar Oliy sudning interaktiv xizmatlar portali orqali elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda videokonferensaloqa rejimida o‘tkaziladigan sud majlislarida mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish orqali protsessual qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Jumladan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun ko‘rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo‘yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko‘rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalaniladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlayotgan sud ushbu shaxslarning kelgan-kelmaganini tekshiradi va kelgan shaxslarning shaxsini aniqlaydi. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan shaxslarning shaxsi ishni ko‘rayotgan sud tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalangan xolda aniqlanadi.

Tegishli o‘zgartirishlar Fuqarolik protsessual kodeksiga, Iqtisodiy protsessual kodeksiga va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksiga kiritilmoqda. Hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 12-martdan kuchga kirdi.

Sardorbek MAMAJANOV,
Andijon viloyat prokuraturasi prokuratura organlari tergov tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat bo‘limi prokurori.

YURIDIK XIZMATLAR FAOLIYATIGA SUN'IY IDROK TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarori qabul qilinishi bilan davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish bosqichga ko‘tarildi. Mazkur qaror bilan yuridik xizmat xodimlarining huquqiy maqomi mustahkamlanib, ularning funksiya va vazifalari aniqlashtirildi.

Axborot texnologiyalarining bugungi rivoji yuridik xizmat ko‘rsatish jarayoniga sun'iy idrok imkoniyatlarini joriy etish orqali soha samaradorligini yanada oshirish imkoniyatini beradi.

Mazkur imkoniyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

HUJJAT LOYIHALARINI ISHLAB CHIQISH HAMDA HUQUQIY EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH

Sun'iy idrok davlat organlari va tashkilotlarining idoraviy buyruq, shartnoma, talabnoma va da'vo arizalari loyihalarini ishlab chiqish, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish imkoniyatini beradi. Bu yuridik tusdagi hujjat loyihalarini ishlab chiqish vaqtini qisqartirish bilan birgalikda, inson omilini kamaytirish orqali davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga imkon beradi.

QONUNCHILIK HUJJATLARINI TAHLIL QILISH

Sun'iy idrok qabul qilinayotgan hamda amaldagi qonunchilik hujjatlarini tezkorlik bilan tahlil qilish, ulardagi bo‘shliq (oq dog‘larni) barvaqt aniqlash hamda bartaraf qilish jarayonini tezlashtiradi.

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH

Jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatida uchrayotgan hamda bevosita davlat organlari va tashkilotlari bilan bog‘liq huquqiy masalalarni ko‘rib chiqishda sun'iy idrokdan foydalanish, jismoniy va yuridik shaxslarga o‘zlarini qiynab kelayotgan huquqiy muammolarga tezkorlik bilan javob olish imkoniyatini yaratadi.

XAVFLARNI BOSHQARISH VA QONUNCHILIK HUJJATLARI TALABLARIGA RIOYA QILINISHINI NAZORAT QILISH

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyotini sun'iy idrok tomonidan nazorat qilib borish turli qonunbuzilish holatlarini oldini oladi.

Sun'iy idrok qonunchilikdagi o‘zgarishlarni kuzatib borishga va yangi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni to‘g‘risida tezkor axborot berib boradi.

Xavflarni bashorat qilish - sun'iy idrok davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonunbuzilish holatlari, sud ishlari va boshqa omillar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatidagi potensial xavflarni aniqlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatiga sun'iy idrokni joriy etish istiqbollari g‘oyatda keng bo‘lib, bu sohada sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyatini beradi. Sun'iy idrok ish aniqligini va tezligini oshirishi, xarajatlarni kamaytirishi hamda yuridik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini vujudga keltiradi.

K.MASHRAPOV,
Farg‘ona viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.



NAVRO‘Z - BOQIY BAYRAM

Yurtimizda ayni kunlarda tabiat uyg‘onib, go‘zal diyorimizga barchamiz orziqib, sog‘inib kutgan Navro‘zi olam kirib kelmoqda. Ayniqsa, tinchlik va sog‘liqni ulug‘laydigan, hayotni, yasharish va yangilanishni sharaflaydigan bayram - Navro‘zning bu yilgi qadri o‘zgacha.

Ha, Navro‘zning butun mohiyatida xalqimizning ezgulikparvar qalbi namoyon bo‘ladi. Ming yillar davomida ma‘naviy hayotimizning ko‘rku ziynati bo‘lib kelayotgan bu ajoyib, xosiyatli bayram bugun qalblarimizga yana cheksiz quvonch va zavq bag‘ishlamoqda.

Navro‘z qadim va boqiy bayram. Xususan, Navro‘z haqida "Avesto"da shunday bitiklar bor: "Zardo‘shtiylar e‘tiqodiga ko‘ra, ko‘klam giyohlari unib, daraxtlar kurtak ota boshlagach o‘sha atrofdagi qora kuchlar mahf bo‘lgan".

Ta‘kidlash joiz, Abu Rayhon Beruniy Navro‘z tarixi borasida Sosoniylar (226-650) davlati davridagi ajoyib bayram tantanalaridan rivoyatlar so‘ylaydi. U yilning ayrilishini ilmiy asosda isbotlab bergan olimlardan sanaladi. Alisher Navoiy kun bilan tenglashgan (Quyosh taqvimi bilan 21-mart) pallani shunday izohlaydi:

Yuz ochib bildirdi qad birla
sochi teng erkanin,
Zohir o‘lg‘ondek tunu kun
tengligi Navro‘zdin.

Umar Xayyom "Navro‘znoma" asarida shunday deydi: "Qachonki, Hamal qoshidan o‘z aylanish davri bo‘ylab yo‘lga chiqqan oftobni osmon yana uyiga qaytarib keltirsa, uning boshqatdan falak sayriga chiqishdan boshlab olamni o‘zgartirib yuboradigan yangi tarix boshlanadi". Al-Hakim at-Termiziy esa o‘zining "Navro‘znoma" asarida Navro‘z va Navro‘z bayrami tafsilotlari barobarida uning kelishi haftaning qaysi kunlarida to‘g‘ri kelsa, yilning qanday kechishini, dehqonchilik, savdo-sotiq hamda boshqa sohalarda tabiat va zamonning avzoyini osmon yoritgichlari harakatlari orqali asoslab beradi va kitob haqida: "Toki har kim o‘qisa, taqvimga muhtoj bo‘lmas va harchand (qancha) zamon o‘tsa ham bu nusxa mansux (eski) bo‘lmas" - deydi.

Bugungi kunda Navro‘z o‘zining umuminsoniy g‘oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o‘rin egallamoqda. Barchangizga ayonki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarori bilan 21-mart - butun dunyoda Xalqaro Navro‘z kuni sifatida keng nishonlanmoqda.

Navro‘zni shodiyona qilayotgan xalqimiz bugun "Har kunimiz Navro‘z bo‘lsin!" degan ezgu tilaklarini qayta-qayta bildirmoqda.

Aholi farovonligi, yurtimiz ravnaqi ustuvor maqsad bo‘lgan shiddatli islohotlarimizda ham Navro‘z ruhi bor go‘yo! Bu ezgu o‘zgarishlar ham odamlar hayotiga xush yangiliklar olib kirmoqda.

Fursatdan foydalanib, aziz yurtdoshlarimizni Navro‘zi olam bilan samimiy muborakbot etaman.

Jonajon diyorimiz ulkan to‘yxonaga aylanib, hamisha shodlik, yaratuvchanlik mehnati, bunyodkorlik, xalqning baxtu saodati tantana qilaversin.

Ulug‘ ayyom muborak bo‘lsin!

Mavjuda HASANOVA,

YURTIMIZDA TIBBIYOT TURIZMI YANADA RIVOJLANADI

Andijonda tibbiyot turizmini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.



Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy turizm assotsiatsiyasi hamkorligida Andijon farmatsevtika hududidagi "Farmapark" kompaniyasida o‘tkazilgan xalqaro amaliy anjuman ochilishida Andijon viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i Shohruh Mamajonov, respublika Tibbiy turizm assotsiatsiya raisi Akobir Shukurov so‘z olib, anjuman ishtirokchilarini qutladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda nafaqat tibbiyot tizimi, balki tibbiyot turizmi ham tobora rivojlanib borayotganligi ta'kidlandi.

Bir necha yillar avval, ko‘plab yurtdoshlarimiz Turkiya, Hindiston, Rossiya, Yevropa mamlakatlariga davolanish uchun borar edi. Bugungi kunga kelib, yurtimiz tibbiyoti rivojlandi, tibbiy xizmat sifati yuksaldi. Davolash, turli jarrohlik amaliyotlarini qo‘llashda ilg‘or uslublar tatbiq etildi, zamonaviy tibbiy apparatlardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida boshqa davlatlardan yurtimizning tibbiy muassasalariga kelib davolanuvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Jumladan, birgina o‘tgan 2024 yil davomida Andijon viloyatidagi xususiy tibbiy-davolash muassasalarida 4 ming nafarga yaqin chet el fuqarolari davolandi.

Mamlakatimiz tibbiy davolash muassasalari vakillari, xorijlik mutaxassislar ishtirok etgan tadbirda tibbiyot turizmini rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama etildi.

Mutaxassislarning O‘zbekiston Respublikasi tibbiy turizm assotsiatsiyasi faoliyati, shuningdek, sohani rivojlantirishga oid, "Xonobodda sog‘liqni saqlash va dam olish turizmining istiqbollari" mavzusidagi ma'ruzalari tinglandi. Ishtirokchilar tomonidan ma'ruzalar hamda mazkur yo‘nalishdagi ishlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarish yuzasidan taklif, fikr va mulohazalar bildirildi.

Shundan so‘ng mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan qator xususiy tibbiy muassasalar faoliyati bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazildi.

Taqdimotda ana shu tibbiy muassasalar faoliyati, davolash imkoniyatlari haqida keng ma'lumotlar berildi.

Konferensiya davomida Qirg‘iziston Respublikasidan kelgan mutaxassislar tomonidan Qirg‘izistondagi qator tibbiy muassasalar, ularning faoliyati va imkoniyatlari haqida ham ma'lumotlar berildi. Tibbiyot turizmini rivojlantirish, hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha takliflar bildirildi.

Qirg‘iziston Respublikasi vakillari bilan tibbiy turizm yo‘nalishida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Shundan so‘ng anjuman ishtirokchilari Andijondagi doridarmon va tibbiy jihozlar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Anjumanning ikkinchi kunida ishtirokchilar Andijon viloyatidagi qator tibbiy muassasalar faoliyati, tibbiy turizm yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar bilan bevosita tanishdi.

Ushbu anjuman mamlakatimizda tibbiyot turizmini rivojlantirish borasidagi ishlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga, xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

M.MAMATQULOV,
"Adolat mezoni" muxbiri.

TALABALARNING TASHABBUS VA TAKLIFLARI QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA

Andijon davlat universiteti rektori Baxtiyorjon Akbaraliyev "Rektor va yoshlar uchrashuvi" doirasida bitiruvchi talabalar bilan uchrashib, ochiq muloqot o‘tkazdi.





Talabalarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish, ularning bandligini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan muloqotda bitiruvchi talabalar o‘zlarining taklif va tashabbuslari bilan faol ishtirok etdi.

Dastlab, rektor talabalarning nafaqat bilim olishi, balki ijtimoiy, madaniy va sport sohalaridagi faoliyatini rag‘batlantirish, o‘qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularga samarali yechimlar topish, shuningdek, talabalar o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantirish, shu orqali ularning shaxsiy hamda kasbiy salohiyatini yanada yuqori darajaga ko‘tarish muhimligini alohida ta'kidladi.

Muloqot davomida talabalar o‘qish jarayonlari, mavjud muammolar, umuman, qator masalalar yuzasidan o‘zlarining takliflarini bildirdi. Jumladan, Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi Nozimaxon Vohidova xorijiy tillarni o‘rganishga qiziquvchi yoshlar uchun universitetda o‘quv kurslari tashkil etish taklifini bildirdi. Ushbu tashabbus rektor tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha kurs tashkil etishda mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

- Amaliyotni sohamizga yaqin ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish korxona va tashkilotlarida o‘tash yo‘lga qo‘yilsa, nazariy bilimlarimizni mustahkamlash, qolaversa, keyinchalik ishga joylashish imkoniyatlarimiz yanada ortar edi, - deydi Tabiiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi Mahmudaxon Begijonova. - Shuning uchun universitetimiz hamda ana shunday korxonalar o‘rtasida talabalarning amaliyot o‘tashi bo‘yicha shartnomalar tuzilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Rektor ushbu taklif bo‘yicha ham kelgusida zarur ishlar olib borilishini aytib o‘tdi.

Uchrashuv yakunida rektor tomonidan talabalarning muammolarini hal qilish, ularga qulay o‘quv muhitini yaratish, taklif va tashabbuslarini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.

F. UBAYDULLAYEV,
Z. UMRZOQOV (foto),
O‘zA muxbirlari.

MAKTAB SAHNASIDAN KATTA SAHNA SARI YO‘L

Yosh avlodning qobiliyat va iste‘dodini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan "Turon" teatr maktabi yuzlab bo‘lajak san‘atkorlarni maktab sahnasidan katta sahna sari chorlamoqda. Bu borada o‘tkazilayotgan respublika ko‘rik-tanlovi ham muhim ahamiyat kasb etyapti. Ushbu tanlovning Andijon shahrida viloyat bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda mavjud maktab guruhlari orasidan saralab olingan 16 ta teatr jamoasi qatnashdi.

- Har safar ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilayotgan vaynlarni, kichik sahna ko‘rinishlarini ko‘rganimda ularga taqlid qilishni, o‘zim ham shu kabi ko‘rinishlarda ishtirok etishni xohlardim, - deydi Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 2-umumta‘lim maktabi o‘quvchisi Sherzodbek Obidov. - "Turon" teatr maktabi tanlovida ishtirok etgach, sahna asari to‘g‘risidagi fikrlarim umuman o‘zgarib ketdi. Sahnaning o‘zgacha sehri, tarbiyaviy ahamiyati, professional darajasidagi talablari bor ekan. Unga rioya qilish orqaligina haqiqiy san‘atkor bo‘lish mumkin. Tanlov shu jihatlari bilan ham yoshlar hayotida muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Tanlovning shahar va tuman bosqichlarida 12 mingta teatr jamoalari tarkibida 100 ming nafardan ziyod o‘quvchilar faol ishtirok etdi. Asaka tumanining "Turon mash‘ali" jamoasi esa har tomonlama tanlov shartlariga to‘liq javob bera olgani bois g‘olib, deb topildi va respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Saminjon HUSANOV,
"Xalq so‘zi" muxbiri.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб 2019 йил 21 сентябрь куни вафот этган марҳум **KELDIYEV SHUXRAT TUXTASINOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шоҳкўчаси, 39 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ш.Ўринбоев нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб 1990 йил 13 июнь куни вафот этган марҳум **КУЧКАРОВ НЕМАТ,**

Андижон шаҳрида яшаб 1996 йил 14 август куни вафот этган марҳум **САЛИМОВ МАДАМИН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Фурқат кўчаси, 4-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.А.Шербаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Бўстон МФЙ, Х. Олимжон кўчаси, 38-А уйда яшаб 2013 йил 21 январь куни вафот этган марҳума **УМИРЗАКОВА САТТИХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур кўчаси 1-А уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус К. Ш. Жалолиддинов нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб 2007 йил 23 июнь куни вафот этган марҳума **САИДОВА САОДАТХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Милий кўчаси, 27-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Т.У.Арзикулов нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб 2024 йил 20 май куни вафот этган марҳум **TURAYEV GOFUR PATULLAYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.А.Рахимов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Хидирша МФЙ да яшаб 2023 йил 29 январь куни вафот этган марҳума **ABDUMOMINOVA ODINAXON MELIBAYEVNA,**

Хонобод шаҳри, Янги ҳаёт МФЙ, Чаманзор кўчаси, 1/11 уйда яшаб **MIRZAKARIMOVA GULXAN ABSALAMOVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумаларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон тумани, Исломобод кўчасида яшаб, 2022 йил 23 декабрь куни вафот этган марҳум **ЗОХИДОВ ЗУЛИНБОЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Бахт МФЙ, Олтин водий кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Қ.Ғуломжонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманида яшаб 2022 йил 14 декабрь куни вафот этган марҳум **UMAROV MAVLONBEK XAYDAROVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманида яшаб 2016 йил 11 октябрь куни вафот этган марҳума **ROZUBAYEVA SALAMATXAN,**

Жалақудуқ туманида яшаб 2009 йил 30 август куни вафот этган марҳум **УМАРОВ КАМБАР МУЛЛАБАЕВИЧ,**

Жалақудуқ туманида яшаб 2019 йил 3 август куни вафот этган марҳум **MAMADALIYEV MAMADJAN MAMADALIYEVICH,**

Жалақудуқ туманида яшаб 2022 йил 28 ноябрь куни вафот этган марҳума **MAMADALIYEVA FERUZA MAMADALIYEVNA,**

Жалақудуқ туманида яшаб 2024 йил 24 октябрь куни вафот этган марҳума **AXMADJANOVA MAXSUDAXAN ERGASHEVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Дукчи Эшонов маҳалласида яшаб 2024 йил 12 январь куни вафот этган марҳум **ХАЙДАРОВ НАЗИР**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Олтинкўл тумани, Андижон маҳалласида яшаб 2024 йил 7 март куни вафот этган марҳум **МУЛЛАНОВ ҒАНИЖОН ЭРГАШОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Олтинкўл тумани, Марказ маҳалласи, Олтин соҳил кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ж.Р.Қўйлиев нотариал идорасига,

Олтинкўл тумани, Сарой-1 маҳалласида яшаб 2019 йил 17 февраль куни вафот этган марҳум **РАХМОНОВ МУХТОРЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Олтинкўл тумани Марказ маҳалласи Олтин соҳил кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.К.Бердибеков нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2024 йил 15 сентябрь куни вафот этган марҳум **ЮНУСОВ СИРОЖИДИН ХОШИМЖОНОВИЧ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2021 йил 9 январь куни вафот этган марҳум **ҚУРБАНОВ МУЗАФФАР МАХМУДОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Дориломон МФЙда яшаб, 2023 йил 16 апрелда вафот этган марҳум **YUSUPJON OLIMOVICH ABDUVALIYEV,**

Шаҳрихон тумани, Абдубий МФЙда яшаб, 2024 йил 15 январда вафот этган марҳум **МУРОДЖОН ПОЗИЛОВИЧ ШАМШИЕВ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги Найнаво МФЙда яшаб, 2017 йил 14 январда вафот этган марҳума **XOLISXON ORIPOVNA G'OZIYEVA,**

Шаҳрихон тумани, Ўзбекистон МФЙда яшаб, 2024 йил 13 сентябрда вафот этган марҳум **NEMATJON XASANOVICH SAYDALIYEV**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Байроқ МФЙда яшаб, 2022 йил 1 октябрда вафот этган марҳум **АЛИШЕР ТИЛОВОЛДИЕВИЧ ЖЎРАЕВ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Хамза кўчаси, 2-уй, 4-квартирада жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo'limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 20.03.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 20.03.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000139. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o'g'li